



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI  
QO'MITASINING  
BUYRUG'I**

20~~23~~ yil. "29" 12

№ 81

Toshkent shahri

**Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish  
chora-tadbirlari haqida**

O'zbekiston Respublikasida antimikrob vositalarning noto'g'ri qo'llanilishiga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, shu jumladan samarali profilaktik tizimni ishlab chiqish, ilg'or diagnostik usullarni amaliyotga joriy etish hamda bu sohada moddiy-texnik baza va kadrlar potensialini mustahkamlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Respublika ixtisoslashgan epidemilogiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyat markazi tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Antimikrob chidamlilikni o'rganish referens-markazi (keyingi o'rnlarda - Markaz) tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Markaz faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari etib belgilansin:

bakterial infeksiyalarning etiologik tarkibida klinik ahamiyatga ega mikroorganizmlarning nisbiy ulushini aniqlash va qo'zg'atuvchilarning antibakterial preparatlarga chidamlilik darajasi hamda spektrini o'rganish;

mikrobiologik laboratoriyalardagi tekshiruv usullarini standartlashtirish va ularga sifat menedjmenti tizimini joriy etish bo'yicha uslubiy yondoshuv va tavsiyanomalar ishlab chiqish;

muhim ahamiyatga ega bo'lgan mikroorganizmlarning antibiotiklarga chidamli shtammlarining tarqalishini cheklash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

o'z vazifa va funksiyalari doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

mikrobiologik laboratoriylar xodimlarining malakasini muntazam oshirib borilishini tashkil etish.

3. Belgilansinki, Markaz shtat birliklari Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy

tibbiyot markazi va klinikasining amaldagi shtat birliklaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

4. Qo‘mita raisi o‘rinbosari (Q. Hayitov), Moliya-iqtisod bo‘limi (S. Xurramov) Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (B. Tadjiev) bir oy muddatda:

Markaz tuzilmasi, yangilangan shtat jadvallari hamda nizomini tasdiqlash uchun Qo‘mita rahbariyatiga kiritsin;

Markazni zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, qo‘yilgan vazifalar samarali bajarilishini yuksak professional darajada ta’minlashga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislar bilan to‘ldirsin.

5. 2024-2026-yillarda antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish chora-tadbirlari dasturi (keyingi o‘rnarda – dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


6. Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (B. Tadjiev) dasturda belgilangan tadbirlarning ijrosi yuzasidan har chorakda Qo‘mitaga hisobot kiritib borsin;

Qo‘mitaning Xalqaro aloqalar bo‘limi (L. Xujamberdiyeva) bilan birgalikda dasturda ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlarini jalg qilish choralarini ko‘rsin.

7. Qo‘mitaning Axborot xizmati bo‘limi (M. Saidova) antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish, antimikrob vositalardan ratsional va to‘g‘ri foydalanish hamda yuqumli kasalliklar bo‘yicha epidemiologik va epizootik osoyishtalikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan targ‘ibot ishlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borsin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish rais o‘rinbosari B. Kurbanov zimmasiga yuklansin.

**Rais**



**B. Yusupaliyev**

O'zbekiston Respublikasi  
 Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi  
 Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik  
 va jamoat salomatligi qo'mitasining  
 2023-yil 29-12 dagi 84-son  
 buyrug'iga  
 ilova

**2024-2026-yillarda antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish**  
**Antimikrob chidamlilikni o'rGANISH REFERENS-MARKAZINING**  
**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

Nº	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbalari	Ijro muddati	Mas'ullar
1.	Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish bo'yicha mutavassisi lar va aholliga tushuntirish ishlarini olib borish.	<p>Markazdan foydalangan holda antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqallshining oldini olish bilan bog'liq muammolarni yoritish bo'yicha choratadbirlar rejasini ishlab chiqish;</p> <p>Ommaviy axborot vositalarda antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish bo'yicha maxsus ko'rsatuvlarni tashkil etish.</p> <p>Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish muammolariga bag'ishlangan xalqaro doiradagi konferensiya tashkil etish va o'tkazish;</p> <p>Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilik tarqalishining oldini olish bo'yicha yillik global informatsion tadbirlarda ishtirok etish.</p>		<p>2024-yil fevral</p> <p>2024-yil martdan boshlab muntazam ravishda</p> <p>2024-yil oktabr</p> <p>Har yili noyabr oyida</p>	<p>B. Tadjiev G. Abduxalilova</p> <p>M. Saidova</p> <p>B. Tadjiev</p> <p>B. Tadjiev L. Xujamberdiyeva</p>

<b>№</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Moliyalashtirish manbalari</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
2.	<p>Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha epidemiologik nazorat olib borish milliy tizimini yaratish.</p> <p>Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha bayonnomani ishlab chiqish;</p> <p>Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha arxiv ma'lumotlar (milliy) bazasini yaratish;</p> <p>Bayonna ma'sida tuman (shahar) darajasidagi davolash profilaktika muassasalarining bakteriologik laboratoriyalari mutaxassislariga zamonaviy diagnostika usullari va bakteriologik tekshiruvlardan olingan natijalarni ma'lumotlar bazasiga kiritish bo'yicha seminarlar tashkil etish;</p> <p>Markazga sog'lijni saqlash tizimi bakteriologik laboratoriyalari sifatini tashqi baholashdan o'tkazish uchun malakanibaholovchi provayder maqomini berish uchun uni ISO 17043 standartlari talablariga muvofiq akkreditatsiyadan o'tkazish va unda</p>	<p>Markaz faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik vositalarni xarid qilish.</p>		<p>Moddiy-texnik vositalar uchun pul mablag'lari ajratilgandan so'ng bir oy muddatda</p> <p>Mablag' talab etilmaydi</p> <p>Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti mablag'lari – 10 000 AQSh doll.</p> <p>Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti mablag'lari – 5 000 AQSh doll.</p> <p>AQSh Kasalliklarni nazorat qilish markazi mablag'lari (tahminan 50 000 AQSh doll)</p>	<p>Q. Hayitov S. Xurramov</p> <p>G. Abduxalilova</p> <p>B. Tadjiev</p> <p>B. Tadjiev G. Abduxalilova</p> <p>G. Abduxalilova</p>

<b>Nº</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Moliyalashtirish manbalari</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
		sifat menedjmenti tizimini joriy etish.			
3.	Davlat tibbiyat muassasalarida antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha epidemiologik nazorat olib borish milliy tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.	Davlat tibbiyat muassasalarida antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha epidemiologik nazorat olib borish milliy tizimini bosqichma-bosqich joriy etish rejasini ishlab chiqish;  Milliy tizimga o'tgan tibbiyat muassasalaridan antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar yig'ilib, Markazga taqdim qilinishini ta'minlash.	Mablag' talab etilmaydi  Mablag' talab etilmaydi	2024-yil mart  Doimiy ravishda	B. Tadjiev  G. Abduxalilova
4.	Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha xalqaro epidemiologik nazorat tarmoqlarida (CAESAR, GLASS) ishtirot etish.	CAESAR va GLASS tarmoqlari yillik hisobotlarida ishtirot etish.	Mablag' talab etilmaydi	2024-yildan boshlab har yili	B. Tadjiev L. Xujamberdiyeva G. Abduxalilova
5.	Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish.	Mavjud vaziyat va tendensiyalarning tahlili asosida ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'naliishlarni belgilab olish;  Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni moliyalashtirish.	Mablag' talab etilmaydi  CDC,JSST, FAO va boshqa xalqaro	2024-yildan boshlab har yili  2024-yildan boshlab	B. Tadjiev G. Abduxalilova  B. Tadjiev L. Xujamberdiyeva

<b>Nº</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Moliyalashtirish manbalari</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
			tashkilotlarning mablag'lari	har yili	G. Abduxalilova
6.	Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish maqsadida sog'liqni saqlash sohasida infeksiyalardan ogohlantirish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish.	Infeksiyalardan ogohlantirish va nazorat qilishning amaldagi, shu jumladan tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan tizimini baholash;  Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish uchun infeksiyalarni profilaktika va nazorat qilishga oid normativ-huquqiy va texnik jihatdan tartibga solishga oid hujjatlarni takomillashtirish.	Mablag' talab etilmaydi  Mablag' talab etilmaydi	2025-yil yanvar-iyun  2025-yil iyul	B. Kurbanov  B. Kurbanov
7.	Mutaxassislar uchun antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha seminarlar va o'quv kurslarini tashkil etish.	Antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha zamonaviy talablar va xalqaro tajribani inobatga olgan holda tibbiyot xodimlari, veterenariya vrachlari, farmasevtlar uchun seminarlar tashkil etish;  Tibbiyot xodimlari, veterenariya vrachlari va farmasevtlar uchun antimikrob vositalarga nisbatan chidamlilikning oldini olish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish.	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mablag'lari – 5 000 AQSh doll.  Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mablag'lari – 5 000 AQSh doll.	2024-yildan boshlab har yili	G. Abduxalilova  G. Abduxalilova